

Ayyor tulki



Malla tulkivoy ko'plab ertaklarning mashhur qahramonidir. U ayyor, aqlli va makkor. Hayotda ham shunday. Ovchilardan qochish kerak bo'lsa, tulki izlarini dumi bilan supurib yo'qotadi. Shunday qilib ovchilarni chalg'itadi. Bundan tashqari, qishda tulkilar ajoyib momiq dumi bilan xuddi adyolga o'ralgandek o'ralib, o'zlarini isitadi. Tulkilar itsimonlar oilasiga mansub bo'lib, kuchuklarning qarindoshi hisoblanadi. Ular kuchli hid bilish qobiliyatiga ega va juda sezgir. Tulkilar chuqur uyalarda yashaydi, kechalari mayda kemiruvchilarni ovlaydi.



15

QR-kodni
skanerlang